

MUSIQA SAN'ATINING TARAQQIYOTIDA USTOZ-SHOGIRD AN'ANALARINING AHAMIYATI (MAMAYUSUPOV ADXAMJON QOBILJON O'G'LI FAOLIYATI MISOLIDA)

V.Boboyev

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutining Farg'ona mintaqaviy filiali

Annotatsiya: Mazkur maqolada yo'qolayozgan qimmatli an'analarni tiklash, milliy musiqa ta'limi va targ'ibotini to'g'ri yo'lga qo'yish, ilmiy jihatdan atroflicha o'rganish yo'lida samarali faoliyat olib borga ustoz san'atkor Mamayusupov Adhamjon Qobiljon o'g'li haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: ustoz-shogird, an'anaviylik, vorisiylik, folklor, uslub, ko'rik tanlov, musiqa ilmi

THE SIGNIFICANCE OF THE TRADITIONS OF THE TEACHER- DISCIPLINARY IN THE DEVELOPMENT OF THE ART OF MUSIC (EXAMPLE OF THE ACTIVITY OF MAMAYUSUPOV ADKHAMJON KABILJON OLY)

V.Boboyev

Fergana regional branch of Uzbekistan State Institute of Arts and Culture

Abstract: In this article, a teacher who has been effective in the way of restoring valuable traditions that have not been lost, establishing the right way of national music education and promotion, scientifically comprehensive study. It is about the son of actor Mamayusupov Adhamjon Kabiljon.

Keywords: teacher-student, traditionalism, succession, folklore, style, audition, musicology

Istiqlol sharofati bilan milliy musiqiy dadriyatlarimiz ustuvor ahamiyat kasb eta boshlagani quvonarli hol bo'ldi. Yo'qolayozgan qimmatli an'analarni tiklash, milliy musiqa ta'limi va targ'ibotini to'g'ri yo'lga qo'yish, ilmiy jihatdan atroflicha o'rganish uchuy yaralgan imkonlarni ishga solish vaqti keldi. Xalq musiqa ijodiyotida vujudga kelgan ko'hna kuy-oxanglar yoshini aniqlashning ilojisi yo'qdir balki, ammo shahar madaniyati uzil-kesil shakllanishi va rivoji bilan bog'liq ijod qatlamlari salkam uch ming yillik tarixga ega, deb aytishimiz mumkin. Demakki, musiqada kasbiylik darajasi, shu jumladan musiqa folkloridan bir hisobda ajralib chiqqan bo'lsa-da, u bilan har doimgidek chambarchas bog'liq holda rivojlanib keldi. Milliy-maxalliy xonandalik, cholg'u ijrochiligi va bastakorlik harakatlari xamisha bir-birini boyitib

bordi. Chunki mashhur san'at ustalarining kasbiy faoliyatida mazkur jabhalar bir butunlikni tashkil etganligi kundek ravshan.

Mazkur maqolada boy va mazmunli tarixga ega musiqa san'atimizni yosh avlodga yetkazib berish hamda ustoz-shogird an'analari asosida boyitib borishda o'zining salmoqli hissasini qo'shga ijodkor, pedagog Mamayusupov Adhamjon Qobiljon o'g'li haqida to'xtalmoqchimiz.

Mamayusupov Adhamjon Qobiljon o'g'li 1942-yilda san'at va madaniyat o'chog'i sanalmish ko'hna Qo'qon shahrida tug'ilgan. 1950-yili Qo'qon shahridagi 6-o'rta maktabni tamomlab, Qo'qon Davlat pedagogika oliygohining "Boshlang'ich sinf o'qituvchisi va musiqa o'qituvchisi" yo'nalishiga o'qishga kiradi. 1965-yilda oliygohni tamomlab, Qo'qon shahridagi 18-o'rta maktabga musiqa o'qituvchisi etib ishga qabul qilinadi. 1965-yildan to 1989- yilgacha shu maktabda musiqa o'qituvchisi bo'lib ishladi.

Shu yillar mobaynida yosh avlodga musiqa ilmidan saboq berish bilan bir qatorda iqtidorli shogirdlari bilan ko'rik tanlovlarda munosib ishtirok etib,sovrinli o'rinlarni qo'lga kiritdi. Jumladan: 1975-yil 30-martda Maktab o'quvchilarinig "San'at bayrami" Respublika ko'rik tanlovida faol ishtirok etib 1-darajali Diplom xamda vazirlikning Faxriy yorlig'i bilan, 1976-yil 26-martda Yosh avlodni musiqiy va estetik ruxda tarbiyalashdagi katta xizmatlari uchun xamda "San'at bayrami -1976" Respublika ko'rik tanlovining viloyat bosqichida "Vokal qizlar ansambli" va yakkaxon qo'shiqchilik nominatsiyalari bo'yicha faxrli 1 o'rinni egallagani uchun Farg'ona viloyati xalq ta'limi boshqarmasining 1-darajali Diplomi bilan, 1979-yil 28-martda maktab o'quvchilari o'rtasida an'anaviy ravishda o'tkazilib kelinayotgan "San'at bayrami" Respublika ko'rik tanlovining viloyat bosqichida faol ishtirok etib viloyat Xalq ta'limi boshqarmasining Faxriy yorlig'i bilan, 1986-yil mayda "San'at bayrami - 1986" Respublika ko'rik tanlovining viloyat bosqichida A.Mamayusupov rahbarligida tashkil etilgan yakkaxon qo'shiqchilar hamda "Ashula va raqs ansambli" g'olib deb etirof etilib, 1 darajali Diplom sohibi bo'lgan mazkur jamoalar rahbari A.Mamayusupov Farg'ona viloyati xalq ta'limi boshqarmasining Faxriy yorlig'i xamda qimmatbaho esdalik sovg'alari bilan, 1996-yil fevral oyida, O'zbekiston mutaqqilligining 5 yilligiga bag'ishlab o'tkazilgan "O'zbekiston Vatanim manim" qo'shiqlar ko'rik tanlovda shogirdlari Muxtor Madaliyev va Dilshod Abduraxmonovlar faol ishtirok etib fahrli 3 o'rinni egallab estalik sovg'alari bilan, 1997-yil aprelda "O'zbekiston Vatanim manim" qo'shiqlar ko'rik tanlovida A.Mamayusupov rahbarligi ostida shogirdlari E'zoza Akbarova va Dilnoza Shokirovalar milliy qo'shiqchilik nominatsiyasi bo'yicha ishtirok etib 3-o'rinni egallab, shahar xokimligining Faxriy yorlig'i va qimmatbaho sovg'alari bilan, 1998-yilda "Ustozlarni madh etuvchi qo'shiqlar" Respublika ko'rik tanlovining viloyat bosqichida ishtirok etib faxrli 1 o'rinni egallab, Toshkent shahridagi Turkiston

saroyida o'tkazilgan Respublika bosqichida ishtirok etib faxrli 3 o'rinni egallashga va 3 darajali diplom bilan, 1999-yil may oyida Buxoro shahrida "Muxiddin Qori-Yoqubov" nomli Respublika Bolalar musiqa va san'at maktablari o'quvchilar o'rtasida o'tkaziladigan ko'rik tanlovning yakuniy bosqichida "Bolalar maqom ansambllari" nominatsiyasi bo'yicha ishtirok etgan "Qaro ko'zim" yosh maqomchi bolalar ansambli faxrli 3 o'rinni egallab, 3 darajali diplom bilan, taqdirlandi.

Ustoz san'atkor Ahmadjon Mamayusupovning san'atni targ'ib etish va yosh avlodga musiqiy saboq berishdagi samarali mehnatlari hukumatimiz tomonidan e'tiborsiz qoldirilmadi. 1970-yilda yosh avlodni musiqiy va estetik ruhda tarbiyalashdagi katta xizmatlari uchun "Yubiley medali" bilan, 1974-yil 16-oktyabrda Respublika bo'yicha o'tkazilgan IX Respublika yubiley pedagogik o'qishlarda o'qigan mazmunli maruzalari uchun Ma'orif vazirligining Faxriy yorlig'i bilan, 1977-yil 26-aprelda O'sib borayotgan yosh avlodga Vatanga muhabbat, san'atsevarlik, estetik did va dunyoqarashlarini shakllantirishdagi xizmatlari uchun O'zbekiston Respublikasi Xalq Maorifi A'lochisi nishoni bilan, taqdirlangan.

Ahadjon Mamayusupov faoliyatini o'qituvchi darajasidan boshlab, "Katta o'qituvchi", "Uslubchi o'qituvchi" hamda maktab direktori lavozimlarida ham muvaffaqiyatli ish olib bordi.

7-bolalar musiqa maktabining an'anaviy xonandalik sinfida tahsil olayotgan o'quvchilardan iborat bo'lgan "Qaro ko'zim" yosh maqomchi bolalar ansambli tashkil etib, ularga maktabning o'zbek xalq cholg'u sozlari bo'limida faoliyat olib borayotgan o'qituvchilardan iborat cholg'u ansambli hamrohlik qildi. An'anaviy ravishda o'tkazilib kelinayotgan "Muxiddin Qori-Yoqubov" nomli Respublika Bolalar musiqa va san'at maktablari o'quvchilar o'rtasida o'tkaziladigan ko'rik tanlovda (ko'rik tanlov nizomiga kiritilmagan bo'lsa ham) "Qaro ko'zim" yosh maqomchi bolalar ansambli o'z qo'shiqlari bilan ko'rgazmali chiqishlar qilib milliy mumtoz qo'shiqlar ijrochiligini targ'ibot qilishdi. 1993-yildan to hozirgi kungacha "Qaro ko'zim" maqom ansambli Qo'qon shahrida o'tkaziladigan deyarli har bir tadbirlarda faol ishtirok etib, o'zlarining yosh ijrochilik mahoratlarini tamoshobinlarga namoish etib katta olqishlarga sazovor bo'lmoqdalar.

Adxamjon Mamayusupov o'z shogirdlari bilan bir qatorda o'zining chiroyli xush ovozi bilan xalqimizga tinmay xizmat qilib kelmoqda. Xizmatlarini e'tiborga olib ko'p marotaba shahar xokimligining faxriy yorliqlari va qimmatbaho sovg'alar bilan taqdirlangan Mamayusupov Adxamjon o'sib kelayotgan yosh avlodlarimizni mumtoz qo'shiq san'atiga bo'lgan qiziqishlarini shakllantirish borasida juda katta ishlarni olib bordi. Ayniqsa Toshkent televideniyesining bolalar va o'smirlar ko'rsatuvlari ijodkorlari bilan hamkorlikda Qo'qon shahri o'quvchilari va o'qituvchilarining chiqishlarini tayyorlab markaziy televideniye orqali efirga uzatilishda hamkorlik qildi.

Mana shunday fidoyi ustozlar bor ekan san'atning nozik qirralari, sir-asrorlari avloddan avlodga bezavol o'tib boraveradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. M.O.Komilova ARALASH TA'LIM ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALAR YORDAMIDA // Academic research in educational sciences. 2023. №TMA Conference. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/aralash-talim-zamonaviy-technologiyalar-yordamida> (дата обращения: 23.05.2024).

2. Q.Rahimov. "Musiqaning elementar nazariyasi". O'zbekiston davlat konservatoriyasining «Musiq» nashriyoti, 2007

3. O`zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil

4. Кадилова, С. М. (2020). ЎЗБЕК ТЕАТРИДА КУЛГИ САНЪАТИ. Интернаука, (38-2), 27-28.

5. Кадилова, С. М. (2020). THE PROBLEMS OF EMBODYING ETHNOCULTURAL HERITAGE ON THE THEATER STAGE. In Colloquium-journal (No. 31-3, pp. 10-12). Голопристанський міськрайонний центр зайнятості= Голопристанский районный центр занятости.

6. Mukhsinovna, K. S. DEVELOPMENT TRENDS IN MODERN THEATRICAL ART OF UZBEKISTAN. European Journal of Humanities and, 17.

7. Кадилова, С. М. (2019). Узбекский театр военного периода. In Colloquium-journal (No. 26 (50), pp. 163-165). Голопристанський міськрайонний центр зайнятості.

8. F.Karomatli. O'zbek xalqi cholg'u musiqasi. O'quv qo'llanma. Toshkent 2004

9. KADIROVA, S. M., & KADIROVA, D. M. (2022). " GOLDEN WALL" OF THE NATIONAL THEATER OF UZBEKISTAN. THEORETICAL & APPLIED SCIENCE Учредители: Теоретическая и прикладная наука, (1), 717-721.

10. Kadirova, S. M. (2021). СЦЕНИЧЕСКИЕ ПОИСКИ В УЗБЕКСКОМ ТЕАТРЕ. Theoretical & Applied Science, (3), 177-181.

11. Кадилова, С. М. (2020, June). РЕПЕРТУАР УЗБЕКСКОГО ТЕАТРА В ПЕРИОД ЗАРОЖДЕНИЯ. In The 10th International scientific and practical conference "Dynamics of the development of world science"(June 10-12, 2020) Perfect Publishing, Vancouver, Canada. 2020. 848 p. (p. 417).

12. Кадилова, С. М., & Кадилова, Д. М. (2020). ФОЛЬКЛОР И ЭТНОГРАФИЯ НА СЦЕНЕ УЗБЕКСКОГО ТЕАТРА. ВВК 87, 602.

13. Кадилова, С. М. (2020). Современное состояние театрального искусства в Узбекистане. Проблемы современной науки и образования, (7 (152)), 82-84.

14. Кадилова, С. М. (2020). THE CURRENT STATE OF THEATRICAL ART IN UZBEKISTAN. Проблемы современной науки и образования, (7), 82-84.